



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

O‘ZBEK VA INGLIZ LINGVOMADANIYATIDA BAXT VA DO‘STLIK KONSEPTLARI

Turdiyeva Nilufar Yokubovna

Samarqand davlat chet tillar institute dotsenti, f.f.n.

nilufarturdiyeva0082@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida baxt hamda do‘stlik konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda happiness/baxt birliklarining yadro va periferik ma‘nolari, do‘stlikning muhabbat, mehr, qalb-yurak semantik maydoni bilan bog‘liqligi yoritiladi. Natijalar konseptlarning milliy tafakkurdagi farqlarini ko‘rsatadi, paremiologik ifodalar orqali qiyosiy talqin etadi.

Kalit so‘zlar: baxt, happiness, do‘stlik, friendship, konsept, lingvomadaniyat, paremiya, qalb, yurak, leksik-semantik maydon.

Kirish

Inson ichki dunyosini ifodalovchi konseptlar orasida baxt va do‘stlik alohida o‘rin tutadi. Chunki bu konseptlar insonning shaxsiy hayoti, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qadriyatlari va milliy tafakkuri bilan bevosita bog‘liq. Baxt insonning hayotdan qoniqishi, orzu-istaklari amalga oshishi, ruhiy xotirjamligi va muvaffaqiyat tuyg‘usi orqali namoyon bo‘lsa, do‘stlik o‘zaro ishonch, sadoqat, yaqinlik va mehr asosida shakllanadi. Shu sababli mazkur konseptlarni qiyosiy lingvomadaniy aspektida o‘rganish o‘zbek va ingliz tillarida inson ichki olamining qanday lisoniy vositalar orqali ifodalanishini aniqlashga xizmat qiladi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Konseptual tahlilda til birliklari faqat lug‘aviy ma’no tashuvchisi sifatida emas, balki milliy madaniyat, tarixiy tajriba va qadriyatlar tizimining ifodachisi sifatida qaraladi. O‘zbek va ingliz tillaridagi baxt/happiness hamda do‘stlik/friendship konseptlari bir tomondan universal insoniy qadriyatlarni aks ettirsa, ikkinchi tomondan har bir xalqning dunyoqarashi va mentalitetiga xos ma’no qirralarini ham namoyon qiladi. Inson ichki dunyosini ifodalovchi konseptlarning ingliz lingvomadaniyatidagi o‘ziga xosliklari ilgari ham konseptual-semantik yondashuv asosida tadqiq etilgan [8, p. 670].

Baxt/happiness konseptining leksik-semantik maydoni

Baxt konsepti lingvomadaniyatda dominant konseptlardan biri hisoblanadi. O‘zbek tilida baxt xuddi ingliz tilidagi happiness kabi yadroviy leksema vazifasini bajaradi. Ingliz tilida happiness konsepti luck – omad, gladness – quvonch, delight – xursandchilik, blissfulness – rohat, satisfaction – qoniqish kabi asosiy tayanch tushunchalar bilan bog‘liq. O‘zbek tilida esa baxt konseptining leksik-semantik doirasi nisbatan keng bo‘lib, u taqdir, omad, quvonch, saodat, xursandchilik, rohat-farog‘at, tole, iqbol kabi birliklar orqali ham ifodalanadi.

Qiyosiy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi happiness ko‘proq insonning ichki ruhiy holati, mamnunlik va qoniqish hissi bilan bog‘lanadi. O‘zbek tilidagi baxt esa ichki holat bilan bir qatorda tashqi hayotiy muvaffaqiyat, taqdir, rizq, ulush va omad bilan ham aloqador. Shu bois o‘zbek lingvomadaniyatida baxt insonning faqat emotsional holati emas, balki uning hayot yo‘li, qismati va ijtimoiy muvaffaqiyati bilan bog‘liq murakkab konsept sifatida talqin qilinadi.

Etimologik jihatdan ingliz tilidagi happiness o‘rta ingliz davridagi hap so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u dastlab chance – imkoniyat, luck – omad ma’nolari bilan bog‘langan. Happy, happily, hapless, unhappy, mishap kabi birliklarda hap



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

komponentining izlari saqlanib qolgan. Bu holat happiness konsepti tarkibida tasodif, omad va vaziyatga bog‘liqlik ma’nolari mavjudligini ko‘rsatadi [7, p. 112]. O‘zbek tilida baxt so‘zi fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, dastlab ulush, taqdir, qismat, peshana kabi ma’nolarni bildirgan. Keyinchalik bu so‘z faoliyatdagi muvaffaqiyat, turmush farovonligi, istaklarning amalga oshishi va maqsadga erishish kabi ma’nolarni ham qamrab olgan.

Baxt konseptining sinonimik qatori ham uning keng semantik imkoniyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Ingliz tilida bliss, contentment, gratification, delight, enjoyment, satisfaction, felicity, joy, cheerfulness, gladness, exhilaration, elation kabi birliklar happiness konsepti atrofida birlashadi [7, p. 116; 3, p. 54; 5, p. 177]. O‘zbek tilida esa baxt, saodat, omad, shodlik, xursandchilik, iqbol, mamnunlik, baxtiyorlik, tole, murod, niyat, rohat, lazzat kabi birliklar ushbu konseptning semantik maydonini tashkil etadi [4, p. 186].

Baxt konseptining paremiologik ifodasi

Baxt konsepti o‘zbek va ingliz paremiyalarida ham faol aks etadi. Ingliz tilidagi *Happiness is something to do, something to love, something to hope for; Health is better than wealth; Happiness takes no account of time* kabi maqollar baxtni faol hayot, sevgi, umid, salomatlik va vaqtni unutish darajasidagi mamnunlik bilan bog‘laydi. O‘zbek tilida esa “*Bemor tuzalgisi kelsa, tabib o‘z oyog‘i bilan kelar*”, “*Baxtsizning burni qonar, og‘zi oshga yetganda*” kabi birliklarda baxt ko‘proq omad, vaziyat va taqdir bilan bog‘liq holda talqin qilinadi.

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, ingliz paremiyalarida baxt ko‘proq shaxsiy qoniqish va hayotdan zavqlanish bilan, o‘zbek paremiyalarida esa taqdir, omad, nasiba va ijtimoiy-madaniy tajriba bilan bog‘lanadi. Demak, baxt konseptining universal mazmuni mavjud bo‘lsa-da, uning milliy-madaniy talqinida sezilarli farqlar kuzatiladi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Do‘stlik konseptining lingvomadaniy xususiyatlari

Do‘stlik konsepti insonlar o‘rtasidagi ishonch, yaqinlik, sadoqat va o‘zaro ko‘makka asoslangan ma‘naviy munosabatni bildiradi. O‘zbek tilida do‘st, oshna, yor, qadrton, vafodor do‘st kabi birliklar bu konseptning turli semantik qirralarini ifodalaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da do‘st fors tilidan o‘zlashgan so‘z sifatida shafqatli o‘rtoq, yor, oshna, mahub(a) ma‘nolari bilan izohlanadi. Bu izoh do‘stlik konseptining mehr, yaqinlik va muhabbat semantik maydoni bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ingliz tilidagi friend/friendship birliklari ham yaqinlik, ishonch va o‘zaro hurmat asosidagi munosabatni anglatadi. Biroq ingliz tilida friend so‘zining semantik rivoji ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy tanlov va individual kommunikativ tajriba bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida do‘stlik ko‘proq sadoqat, vafodorlik, qadrtonlik va axloqiy majburiyat mazmunida talqin qilinadi.

Do‘stlik konseptini realizatsiya qilishda muhabbat, mehr, qalb-yurak kabi birliklar muhim o‘rin tutadi. Chunki do‘stlik faqat rasmiy aloqa emas, balki insonning ichki dunyosiga taalluqli ruhiy yaqinlikdir. Badiiy matnlarda “*yuragimning bir parchasi uzilib qolgandek bo‘ldi*” kabi ifodalar do‘stlik va muhabbat konseptlarining o‘zaro kesishishini ko‘rsatadi. Bu birikmada yurak inson tuyg‘ulari jamlangan ramziy makon sifatida keladi; “*yuragimning bir parchasi*” esa yaqin insondan ayrilish, mehr yo‘qotish va ichki bo‘shliq ma‘nolarini beradi.

Do‘stlikka oid paremiyalarda universal va milliy belgilar

O‘zbek va ingliz tillarining paremiologik fondida do‘stlik bilan bog‘liq birliklar universal mazmunga ega. Masalan, *The best of friends must part* – “Eng yaxshi do‘stlar ham ajrashmoqlig‘i muqarrar”, *A friend to everybody is a friend to nobody* – “Hammaga do‘st bo‘lgan hech kimga do‘st bo‘lmaydi”, *Friendship is*



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

not to be bought at a fair – “Do‘stlikni bozordan sotib olib bo‘lmaydi” kabi maqollar har ikkala til uchun mazmunan yaqin hisoblanadi [1, p. 188].

Bu paremiyalar do‘stlikning sadoqat, tanlov, samimiyat va qadriyat sifatidagi xususiyatlarini ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek tillarida do‘stlik sotib olinmaydigan, manfaatdan ustun turadigan, insoniylik mezonini bilan baholanadigan ma‘naviy munosabat sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, o‘zbek tilida do‘stlik ko‘proq qadrdonlik, vafodorlik, og‘ir kunda sinovdan o‘tish kabi qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz tilida friendship shaxsiy tanlov, hurmat va individual masofa bilan ham aloqador holda namoyon bo‘ladi.

Qalb-yurak semantik maydoni

Baxt va do‘stlik konseptlarini tahlil qilishda qalb-yurak semantik maydoni alohida ahamiyatga ega. Ingliz tilida heart leksemasi tuyg‘ular markazi, samimiyat, hamdardlik va jasorat ma‘nolarini ifodalasa, o‘zbek tilida yurak bilan bir qatorda qalb, ko‘ngil, dil birliklari ham faol qo‘llanadi. Masalan, *“Humoyunning qalbida so‘nib qolgan go‘zallik tuyg‘usini shu qiz birdan o‘yg‘otib yubordi”* kabi jumlada qalb ichki go‘zallikni idrok etish, estetik sezgirlik va tuyg‘ular uyg‘onishi bilan bog‘liq [9, p. 390].

O‘zbek lingvomadaniyatida qalb, ko‘ngil, dil birliklari inson ichki olamining nozik qirralarini ifodalaydi. Ingliz tilidagi heart ko‘p hollarda ushbu birliklarning umumiy ekvivalenti bo‘la olsa-da, o‘zbek tilidagi ko‘ngil va dil leksemalari milliy-madaniy jihatdan kengroq emotsional maydonga ega. Shu sababli badiiy tarjima va qiyosiy tahlilda ushbu birliklarning semantik-pragmatik farqlarini hisobga olish zarur.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillarida baxt hamda do'stlik konseptlari umumiy insoniy qadriyatlarni ifodalasa-da, ularning lingvomadaniy talqinida muayyan farqlar mavjud. Ingliz tilida happiness asosan ichki qoniqish, mamnunlik va quvonch holati bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida baxt taqdir, omad, saodat, tole va hayotiy muvaffaqiyat kabi tushunchalarni ham qamrab oladi. Do'stlik konsepti esa har ikkala tilda ishonch, samimiyat va sadoqat bilan bog'liq bo'lib, o'zbek tilida u qadrdonlik, mehr, vafodorlik va qalb yaqinligi bilan yanada kuchliroq madaniy mazmun kasb etadi. Qalb, yurak, dil, ko'ngil kabi birliklar inson ichki dunyosini ifodalashda asosiy lisoniy vositalar sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, baxt va do'stlik konseptlari o'zbek va ingliz tillarida inson ruhiy olami, qadriyatlari va milliy tafakkurini yorituvchi muhim lingvomadaniy birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karamatova K., Karamatov X.S. Proverbs – Maqollar – Пословицы. – T.: Mehnat, 2000. – 400 b.
2. Jonson M. Moral Imagination: Implications of Cognitive Science for Ethics. – Chicago: University of Chicago, 1993. – 170 p.
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.
4. Safarov Sh. "Konsept" hodisasi haqida // Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. – Samarqand, 2010. – B. 185–188.
5. Quinn N. Convergent Evidence for a Cultural Model of American Marriage // Cultural Models in Language and Thought / ed. by D. Holland, N. Quinn. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 173–192.

